XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2021 - yil 31 - dekabr VI-45-132-9-125-K/21 Mirzaobod tuman hokimligi

2022 yilgi tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsakichlarini belgilash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga, Byudjet Kodeksining 99-moddasiga, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2021 yil 30 dekabrdagi 742-sonli Qonuni ijrosini ta’minlash maqasdida 2022 yilgi tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash maqsadida xalq deputatlari Mirzaobod tuman Kengashi **qaror qiladi**:

1. 2022 yilgi tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsakichlarini belgilash yuzasidan tuman Moliya bo‘limi mudiri I.Sattorovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mirzaobod tumanini (bundan buyon – tuman) mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq,

- Tuman mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq,

- 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 3-ilovaga muvofiq,

3. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan (bundan buyon –

Qonun) tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi hamda xarajatlari ijrosi natijasidan qat'iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonun bilan belgilanganligiga amal qilinsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 6-ilovaga,

- jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 7-ilovaga

- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022 yil uchun:

- mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 9-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun);

- avtotransport yig‘imlarning stavkalari 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Qonunda O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qo‘llaniladigan bojxona bojlari stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanishi belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

8. Qonunning 6-moddasi bilan respublika byudjetidan 2022 yilgi tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 53,545 mln. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9. 2022 yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 793,9 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetining 2022 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

10. Tuman byudjetining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxirigacha ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda tuman byudjetining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar tegishincha xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Byudjet xarajatlarini qisqartirishda byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag‘larini oluvchilarning byudjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi.

11. Qonunga muvofiq soliqlarning quyidagi turlari tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

- qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

- mobil aloqa xizmatlari va alkogol maxsuloti, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2020 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisi soninidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

12. Qonunga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi:

- tuman ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat'iy belgilangan miqdorlariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsientlarni kiritishga xaqli.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning

taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi tumanning tuman mahalliy byudjetiga o‘tkazilishi belgilansin.

13. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

Tuman hokimliklari tegishli byudjetlarini birinchi navbatda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantiradi.

14. Tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 (besh) foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko‘rsatgichidagi mablag‘larning tushishi ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan Viloyat hokimligiga taklif kiritilishini ta'minlasin.

15. Qonunga muvofiq 2022 yildan boshlab hududlarda barcha issiqlik energiyasini yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining hududiy organlari xulosalariga ko‘ra xalq deputatlari tuman Kengashi qarori bilan ma'qullanganidan so‘ng tuman hokimi tomonidan tasdiqlanishi;

Issiqlik ta'minoti bo‘yicha xizmatlar uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) yil davomida qayta ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra, issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar aholiga pasaytirilgan tariflar qo‘llanilishi natijasida ko‘rgan zararlarining o‘rnini qoplash uchun qo‘shimcha mablag‘larga bo‘lgan talab tumanning tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanishi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

16. Byudjet jarayonini ochiqligini ta'minlash maqsadida tuman hokimi har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlariga:

- tuman mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari

olib borilayotgan ob'ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni;

- o‘z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni;

- kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar ijrosini, o‘tkazilgan tanlov (tender) savdolari;

- davlat xaridlari;

- mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha daromadlarini 10 (o‘n) foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi natijalarini joylashtirilishini ta'minlasin.

- tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi

- tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

17. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Holqo‘ziyev zimmasiga yuklatilsin.

18. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi

19. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilib borish xalq deputatlari Mirzaobod tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.To‘rayev zimmasiga yuklatilsin.

Tumani hokimi **J.Yariyev**

Халқ депутатлари Мирзаобод
туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-45-132-9-125-K/21-сон қарорига
1-илова

Tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognoz

ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	Daromad turi	Miqdori
0	**JAMI XARAJATLAR**	**84 162 991**
0	**TRANSFERTLAR**	**53 545 020**
	Jami daromadlar	**30 617 971**
	Solik daromadlar	**18 382 011**
I.	**Rag‘batlantiruvchi (Stimuliruyushie) daromad**	**5 364 114**
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*26 820 568*
	ajratma meyori	***20***
1.	mahalliy byudjetga	5 364 114
	Nalog na dobavlennuyu stoimost	25 388 974
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	*4 100 390*
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**13 017 897**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**11 097 626**
1	Yagona soliq to‘lovi	5 125 640
2	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig‘i	558 374
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 619 842
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 709 917
5	Ijara to‘lovlari	83 853
	Viloyat va tuman (shahar)lar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**1 920 271**
1	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	8 544 367
2	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 116 766
	ajratma meyori	***10***

	mahalliy byudjetga	311 677
3	Yuridik shaxslar yer solig‘i	4 463 984
	ajratma meyori	***10***
	mahalliy byudjetga	446 398
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 162 196
	ajratma meyori	***100***
	mahalliy byudjetga	1 162 196
5	Yig‘imlar	5 737 727
III.	**Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)**	**12 235 960**
	Aholi soni (ming kishi)	*76*
1	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	4 631 100
2	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	2 638 100
3	Tamaki mahsulotlari	4 966 760
	Ma'lumot uchun: 2021 yil parametr	*61 832 934*
	JAMI XARAJATLAR	**84 162 991**
	TRANSFERTLAR	**53 545 020**

Халқ депутатлари Мирзаобод
туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-45-132-9-125-K/21-сон қарорига
2-илова

Tuman mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

Ko‘rsatkichlar		Miqdori
	Xarajatlar - jami	**84 162 991**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**61 896 014**
	shu jumladan:	
1.1	**Maorif**	**14 137 967**
	- maktabgacha ta'lim	7 598 312
	- umumiy ta'lim	6 539 655
	- kadrlar tayyorlash	
1.2	Sog‘liqni saqlash	21 885 141
1.3	**Madaniyat va sport**	**3 659 067**
1.3	Madaniyat	1 040 861
1.4	Sport	2 618 206
1.5	Fan	0
1.6	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	22 162 076
1.15	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	51 763
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**8 500 106**
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	
2.2	O‘simliklar karantini inspeksiyalari xarajatlari	
2.3	Obodonlashtirish	6 554 525
2.4	Maxsus ekspluatatsiya-montaj xarajatlari	
2.5	Toza hudud Davlat unitar korxonasi	
2.8	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 318 676
2.14	Veterinariya qo‘mitasi	626 905
4.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**7 172 157**
4.2	Davlat boshqaruv idoralari	7 172 157
5.	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**1 830 772**
6.	**Zahira jamg‘armasi**	**793 990**
7.	**Tashabusli byudjet**	**3 969 952**

8.	**Boshqa xarajatlar**	**0**

Халқ депутатлари Мирзаобод
туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-45-132-9-125-K/21-сон қарорига
3-илова

2022 yil uchun tuman maxalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad *	Xarajat
JAMI	**30 617 971,0**	**84 162 991,0**
Mirzaobod tumani	30 617 971,0	84 162 991,0

* Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan ajaratiladigan mablag‘larni inobatga olgan holda

Халқ депутатлари Мирзаобод туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-45-132-9-125-K/21-сон қарорига
4-илова

Tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qar'ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Mirzaobod tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Халқ депутатлари Мирзаобод
туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-45-132-9-125-K/21-сон қарорига
5-илова

Tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlariMirzaobod tumani

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
JAMI	**53 545 020,0**
Mirzaobod tumani	53 545 020,0

Халқ депутатлари Мирзаобод
туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-45-132-9-125-K/21-сон қарорига
6-илова

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)
1	Navro‘z MFY	1,00	26 400,0
2	Bog‘iston MFY	1,00	26 400,0
3	Toshkent MFY	1,00	26 400,0
4	Mirzo Ulug‘bek MFY	1,00	26 400,0
5	Yangi Xayot MFY	0,90	23 760,0
6	Yo‘ldoshobod MFY	0,90	23 760,0
7	Baxoriston MFY	0,90	23 760,0
8	Navbaxor MFY	0,90	23 760,0
9	Xaqiqat MFY	0,90	23 760,0
10	Do‘ngariq MFY	0,90	23 760,0
11	Mirzacho‘l MFY	0,90	23 760,0
12	Yangi yo‘l MFY	0,90	23 760,0
13	Dexqonobod MFY	1,00	26 400,0
14	Oqoltin MFY	1,00	26 400,0
15	Oydin MFY	0,90	23 760,0
16	Nurafshon MFY	0,90	23 760,0
17	Tinchlik MFY	0,90	23 760,0
18	Yangi O‘zbekiston MFY	1,00	26 400,0

Халқ депутатлари Мирзаобод
туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-45-132-9-125-K/21-сон қарорига
7-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2022 yil uchun
1	Navro‘z MFY	1,00	205,0
2	Bog‘iston MFY	1,00	205,0
3	Toshkent MFY	1,00	205,0
4	Mirzo Ulug‘bek MFY	1,00	205,0
5	Yangi Xayot MFY	1,00	205,0
6	Yo‘ldoshobod MFY	1,00	205,0
7	Baxoriston MFY	1,00	205,0
8	Navbaxor MFY	1,00	205,0
9	Xaqiqat MFY	1,00	205,0
10	Do‘ngariq MFY	1,00	205,0
11	Mirzacho‘l MFY	1,00	205,0
12	Yangi yo‘l MFY	1,00	205,0
13	Dexqonobod MFY	1,00	205,0
14	Oqoltin MFY	1,00	205,0
15	Oydin MFY	1,00	205,0
16	Nurafshon MFY	1,00	205,0
17	Tinchlik MFY	1,00	205,0
18	Yangi O‘zbekiston MFY	1,00	205,0

Халқ депутатлари Мирзаобод
туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-45-132-9-125-K/21-сон қарорига
8-илова

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0 dan 0,5 gacha)	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2022 yil uchun (so‘m)
1	Mirzaobod tumani	0,7	700 000,0

Халқ депутатлари Мирзаобод туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-45-132-9-125-K/21-сон қарорига
9-илова

2022 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda	
			Guliston shahri	boshqa aholi punktlari
1.	**Uy-joylar:**			
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	9 000	4 000
	noturar joy		17 000	7 000
2.	**Avtomobil transporti:**			
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	575 000	
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 150 000	

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi.

Халқ депутатлари Мирзаобод
туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-45-132-9-125-K/21-сон қарорига
10-илова

2022 yil uchun avtotransport yig‘imlarinnng stavkalari

T/r	Yig‘imlar va to‘lovlar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I	**Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlar**	**AQSH dollarida**
1	O‘zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalari kirganligi va tranziti uchun yig‘im, bitta avtotashuvchi kirganligi uchun stavkalari (2 — 5 bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
4	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150
II	**Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im**	
1	Yangi hamda foydalanishda bo‘lgan avtotransport vositalari bo‘yicha	xarid qilish narxining 1 foizi